Qabul qilindi: 27-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 29-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 5-oktyabr 2026-yil

XALQARO TAJRIBA ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH

Qurbonova Bonu Quvondiq qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti
kurbanovabonu4@gmail.com

Annotatsiya. Biz ushbu tezisda xalqaro tajriba asosida boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilib chiqamiz. Va u orqali xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda ta’lim sifatini oshirish tajribalarini ochib berish maqsad qilingan. Tadqiqotda boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Natijada, xalqaro ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligi ko‘rsatib beriladi.


Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, modernizatsiya, xalqaro tajriba, innovatsion texnologiyalar, ta’lim sifati, raqamli texnologiyalar, kompetensiya.

Kirish. Xalqaro tajriba asosida boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish nafaqat ta’lim mazmunini yangilash, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishga imkon beradi. Boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashi, zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu mavzuning dolzarbligi boshlang‘ich ta’limni zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda yanada ortadi. Tadqiqot xalqaro tajriba va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalar hamda tadqiqot natijalariga asoslanadi.

Tadqiqot maqsadi xalqaro tajriba asosida boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni aniqlash

hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini baholashdan iboratdir. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va ilmiy manbalarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Bu ish mutaxassislar, tadqiqotchilar va talabalar uchun foydali bo‘lib, xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi.

Asosiy qism. Xalqaro tajriba asosida boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish – ta’lim mazmunini yangilash, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan jarayon bo‘lib, hozirgi ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishning o‘ziga xosligi uning o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishida ko‘rinadi. Xalqaro tajribani o‘rganish va ilg‘or pedagogik yondashuvlarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.




Xalqaro tajribada boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishda o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalardan foydalanish, amaliy va muammoli topshiriqlarni qo‘llash hamda ta’lim natijalarini zamonaviy mezonlar asosida baholashga katta e’tibor beriladi. Finlyandiya ta’lim tajribasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatini rivojlantirishga, Singapur tajribasida matematik va muammoli fikrlashni shakllantirishga, Janubiy Koreya va Estoniya tajribalarida esa raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga alohida ahamiyat beriladi. Ushbu yondashuvlar boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining faqat nazariy bilimini emas, balki uni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-jadval Ayrim mamlakatlarda boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish tajribasi

Mamlakat	Asosiy yondashuv	Foydalaniladigan raqamli texnologiyalar	Kutiladigan natija
Finlyandiya	O‘quvchiga yo‘naltirilgan va amaliy ta’lim	Elektron darsliklar, interaktiv doskalar, ta’lim platformalari	Mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi
Singapur	Muammoli va kompetensiyaviy ta’lim	Student Learning Space (SLS), interaktiv simulyatsiyalar, raqamli topshiriqlar	Muammoni hal qilish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmasi shakllanadi

Janubiy Koreya	Raqamli va individual ta’lim	Elektron darsliklar, AI asosidagi ta’lim platformalari, planshetlar, multimedia vositalari	Raqamli savodxonlik va individual o‘rganish imkoniyati rivojlanadi
Estoniya	Elektron va interaktiv ta’lim	e-Koolikott, raqamli o‘quv materiallari, elektron ta’lim platformalari	Raqamli kompetensiya va interaktiv ta’lim ko‘nikmalari rivojlanadi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xalqaro tajribada boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishning turli shakllari mavjud bo‘lsa-da, ularning asosiy maqsadi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko‘nikmalari va zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Shu sababli xalqaro tajribani milliy ta’lim tizimiga moslashtirishda mamlakatlarning tayyor ta’lim modelini to‘liq ko‘chirish emas, balki uning samarali jihatlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.



Boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishda, avvalo, dars mazmunini amaliy faoliyat bilan bog‘lash zarur. Masalan, matematika darsida o‘quvchilarga faqat misol va masalalarni yechish topshirig‘ini berish bilan cheklanmasdan, kundalik hayotdagi vaziyatlar asosida masalalar tuzish va ularni mustaqil hal qilish imkoniyatini yaratish mumkin. Bunda o‘quvchi matematik bilimni amaliy vaziyatda qo‘llaydi va natijada mantiqiy fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Tabiiy fanlar darsida esa oddiy kuzatish va tajribalar tashkil etish orqali o‘quvchilarning hodisalarni tushunishi va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ham boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Elektron darsliklar, interaktiv topshiriqlar, multimedia materiallari va ta’lim platformalaridan foydalanish dars jarayonini ko‘rgazmali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Masalan, matematika darsida interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchi misollarni bajaradi va o‘z natijasini darhol ko‘rishi mumkin. O‘qish darslarida audio va video materiallardan foydalanish esa matnni tushunish va mazmunini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchining pedagogik faoliyatini to‘liq almashtirmasligi kerak. Texnologiya ta’lim maqsadiga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo‘llanilishi va o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlashi zarur. Aks holda, texnik vositadan

foydalanishning o‘zi ta’lim sifatining oshishini kafolatlamaydi. Shuning uchun xalqaro tajribadan foydalanishda texnologiyani tanlash bilan bir qatorda uni qaysi maqsadda va qanday metod asosida qo‘llash masalasiga ham e’tibor qaratish muhimdir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish ham modernizatsiyaning muhim jihatlaridan biridir. Bunda o‘quvchilarning bilim darajasi va individual imkoniyatlari hisobga olinadi. Masalan, bir mavzu bo‘yicha turli darajadagi topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning o‘z imkoniyatiga mos ravishda ishlashiga sharoit yaratish mumkin. Oddiy topshiriqni bajarishda qiynalayotgan o‘quvchiga bosqichma-bosqich yordam berish, yaxshi o‘zlashtirayotgan o‘quvchiga esa ijodiy yoki muammoli topshiriq berish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, o‘z fikrini ifodalashi va muammoli vaziyatlarda yechim topishi rivojlanadi. Masalan, “Suvni tejash” mavzusida kichik loyiha tashkil etilganda o‘quvchilar avval muammoni aniqlaydilar, keyin ma’lumot to‘playdilar, o‘z takliflarini ishlab chiqadilar va yakunda natijalarini taqdim etadilar. Natijada o‘quvchi tayyor ma’lumotni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, uni izlash, tahlil qilish va amaliy xulosa chiqarishni o‘rganadi.

2-jadval. Modernizatsiya natijasida shakllanadigan ko‘nikmalar

Qo‘llaniladigan yondashuv va aniq vosita	**Kutiladigan natija**
Interaktiv topshiriqlar – LearningApps, Wordwall	Mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish rivojlanadi
Muammoli vazifalar – matematik masalalar, hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar	Mantiqiy va tanqidiy fikrlash shakllanadi
Loyiha asosida ta’lim – Canva, PowerPoint orqali loyiha va taqdimotlar tayyorlash	Amaliy va ijodiy ko‘nikmalar rivojlanadi
Elektron ta’lim vositalari – elektron darsliklar, Google Classroom, Moodle	Raqamli savodxonlik va axborot bilan ishlash ko‘nikmasi oshadi
Multimedia vositalari – interaktiv doska, video, audio va animatsiyalar	Mavzuni tushunish va vizual idrok etish qobiliyati rivojlanadi
Guruhli hamkorlik vositalari – Google Docs, Padlet	Muloqot, hamkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi

Boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilishda baholash tizimini takomillashtirish ham muhim hisoblanadi. O‘quvchining faqat to‘g‘ri javob berishi emas, balki topshiriqni bajarish jarayoni, mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilish usuli va o‘z fikrini asoslay olishi ham hisobga olinishi kerak. Bunday baholash o‘quvchilarning o‘z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, xalqaro tajriba asosida boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish ta’lim mazmunini yangilash, o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, amaliy va muammoli topshiriqlarni qo‘llash hamda baholash tizimini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo‘nalishlarni milliy ta’lim sharoitiga mos ravishda qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini, amaliy ko‘nikmalarini hamda zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xalqaro tajriba asosida boshlang‘ich ta’limni modernizatsiya qilish ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanishni talab etadi. Interaktiv topshiriqlar, muammoli vazifalar, loyiha asosida ta’lim va multimedia vositalari o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Elektron darsliklar, LearningApps, Wordwall va Google Classroom kabi vositalardan foydalanish o‘quvchilarning faolligi, raqamli savodxonligi va amaliy ko‘nikmalarini oshiradi. Tadqiqot natijalari xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish va zamonaviy ta’lim vositalaridan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Ustoz va murabbiylar uchun maslahatlar. Tadqiqot materiallaridan foydalanib, o‘quvchilarga interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va kichik loyihalar berish nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi. LearningApps, Wordwall va multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligi va qiziqishini oshiradi.

Shug‘ullanuvchilar uchun maslahatlar. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli vositalarni o‘rganib, interaktiv topshiriqlar, muammoli vazifalar va loyiha ishlarini mustaqil bajarish mustaqil fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tilavova S.B. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: ZEBO PRINT, 2025. – 392 b.
2. Atajonova A.J., Rahimova Sh.A., Rahimova G.I. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 274 b.
3. Jabborova O.M., Umarova Z.A. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: MALIK PRINT CO, 2023. – 196 b.
4. Qodirova B. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi fani bo‘yicha. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2026. – 355 b.
5. Anorqulova G.M. Ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021. – 228 b.
6. Sharapova Z.F. Ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 340 b.
7. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.

